

O‘ZBEKISTON YAYLOVLARIDA KADASTR TIZIMI VA U BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Adilbaeva Qamajay

Duysenbaeva Elvira

Kenesov Saken

QDU “Geografiya va tabiiy resurslar” fakulteti talabalari

Adilbaeva Qamajay

Duysenbaeva Elvira

Kenesov Saken

Students of the Faculty of "Geography and Natural Resources" of
Karakalpak State University

ANNOTACIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston yaylovlarida kadastr tizimining ahamiyati, uning tashkil etilish tarixi va mavjud holati tahlil qilingan. Yaylovlarning iqtisodiy ahamiyati, ulardan samarali foydalanishning ijtimoiy va ekologik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, amaldagi yaylov kadastr tizimida uchrayotgan asosiy muammolar – ma’lumotlarning eskirganligi, raqamlashtirish darajasining pastligi va noto‘g‘ri foydalanish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqilgan. Maqola so‘ngida tizimni takomillashtirish yo‘llari haqida taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari yaylovlardan oqilona foydalanish va kadastr tizimini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

Kalit sózlar: Kadastr tizimi, yer kadastr, monitoring, geoinformatsion tizim(GIS), raqamlashtirish.

CADASTRE SYSTEM IN UZBEKISTAN'S PASSAGES AND RELATED PROBLEMS

ABSTRACT

This article analyzes the cadastral system of pastures in Uzbekistan, its importance, historical development, and current state. It highlights the economic significance of pastures and discusses their social and ecological

roles in sustainable use. The study identifies key issues in the existing pasture cadastre system, such as outdated data, low levels of digitalization, and improper land use. Based on international experiences, applicable solutions and suggestions for Uzbekistan are presented. The article concludes with recommendations to improve the system using modern technologies. The research aims to contribute to the rational use of pastures and the modernization of the cadastral system.

Keywords: Cadastral system, land cadastre, monitoring, geographic information system (GIS), digitization.

Kirish

Yaylovlar O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi tizimida muhim o‘rin tutadi. Mamlakat aholisi sonining ortib borishi, chorvachilik sohasining rivojlanishi yaylovlardan foydalanishni zamonaviy tizim asosida yuritishni talab etmoqda. Yaylovlarning oqilona boshqarilishi va ularning hisobini yuritish uchun kadastr tizimi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston yaylovlaridagi kadastr tizimi, uning tashkil etilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar yoritiladi. Yaylovlar – bu chorva mollari uchun ozuqa bazasi bo‘lib xizmat qiluvchi tabiiy o‘tloq maydonlardir. Ular O‘zbekistonning cho‘l va tog‘oldi hududlarida keng tarqalgan. Respublikada umumiy yer maydonining taxminan 50% dan ortig‘ini yaylovlar tashkil etadi. Yaylovlardan to‘g‘ri foydalanish nafaqat chorvachilik, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ham katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi sohasida yaylovlar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy resurslardan biri hisoblanadi. Respublika hududining qariyb 50 foizini egallagan yaylovlar, asosan, cho‘l va dasht zonalarida joylashgan bo‘lib, ular yirik va mayda shoxli hayvonlarni boqish uchun asosiy yem-xashak bazasi sifatida xizmat qiladi. Chorvachilik tarmog‘i rivojida, ayniqsa, go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtirishda yaylovlarning samarali boshqarilishi va ularning holatini to‘g‘ri baholash muhim omildir.

Yaylovlardan barqaror va samarali foydalanish uchun ularning kadastrini yuritish – ya‘ni, har bir yaylov maydonining aniq joylashuvi, sifati, unumdorligi, foydalanish shakllari, ekologik holati va boshqa parametrlarini muntazam kuzatib borish zarur. Yaylovlar kadastrini bu boradagi asosiy axborot manbai hisoblanib, davlat tomonidan yaylovlar ustidan monitoring, nazorat va boshqaruvni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ammo bugungi kunda O‘zbekistonda yaylovlar kadastr tizimi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Ular orasida eski va yangilanmagan ma‘lumotlar, texnologik asosan eskirgan usullar, huquqiy mexanizmlarning nomukammalligi, shuningdek, yer resurslaridan haddan tashqari foydalanish natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu muammolar nafaqat chorvachilik rivojiga, balki butun ekotizim barqarorligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

2.Tadqiqot uslubi va metod

Mazkur maqolani yozishda tizimli tahlil va solishtirma tahlil metodlaridan foydalanildi. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yaylovlardan foydalanish holatini baholash uchun normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma‘lumotlari, hamda ilgari chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

Ikkinchidan, taqqoslash usuli orqali hozirgi mavjud yaylovlar kadastr tizimi bilan ilg‘or xorijiy tajribalar — xususan, Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston va Avstraliya kabi mamlakatlar tajribasi solishtirildi. Bu esa muammolarni chuqurroq aniqlash va ular yechimiga oid amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Shuningdek, kartografik tahlil, monitoring hisobotlari va GIS texnologiyalaridan foydalanish holatlari o‘rganilib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqot davomida deduktiv va induktiv metodlar asosida umumiy holatdan aniq muammolarga, so‘ngra ularning yechimlariga qarab tahliliy yondashuv qo‘llanildi.

O‘zbekistonda yaylovlar kadastr tizimining shakllanishi

O‘zbekistonda yer kadastr tizimi 1990-yillardan boshlab shakllana boshlagan. Yaylov kadastr esa umumiy yer kadastrining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yaylov kadastrining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yaylovlarning joylashuvi, maydoni va tabiiy holati haqida ma‘lumotlar to‘plash;
- Ularning yaroqliligi va o‘zlashtirilish darajasini baholash;
- Yaylovlardan foydalanish huquqini belgilash;
- Yaylovlar monitoringini yuritish.

Amaldagi yaylov kadastr tizimi va uni yuritish tartibi

Yaylov kadastrini yuritish Davlat yer kadastr organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu tizim GIS (geoinformatsion tizimlar), aerokosmik suratlar, geobotanik tadqiqotlar orqali ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Har bir yaylovga pasport tuziladi, unda quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:

- Geografik joylashuvi;
- Tuproq va o'simlik qoplami;
- Suv bilan ta'minlanganlik darajasi;
- Yaylovlardan foydalanish huquqlari va egasi haqida ma'lumotlar.

Yaylov kadastr bilan bog'liq asosiy muammolar

O'zbekiston yaylov kadastr tizimida quyidagi muammolar mavjud:

1. Yaylovlar haqida ishonchli va yangilangan ma'lumotlarning yetishmasligi

Yaylovlar kadastr ma'lumotlari ko'p hollarda eski bo'lib, 1980–1990-yillarda olingan xaritalarga asoslangan. Bu esa yaylovlardan foydalanishda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelmoqda

2. Geoinformatsion texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi

Ko'plab mahalliy hududlarda GPS, GIS, dronlar yordamida monitoring olib borilmaydi. Natijada yaylovlar degradatsiyasi, eroziya va sho'rlanish holatlari vaqtida aniqlanmaydi

3. Huquqiy va institutsional muammolar

Yaylovlar ustidan mulk huquqi noaniqligi, ularni ijaraga berishdagi shaffoflikning yetishmasligi, yer resurslari ustidan nazoratning kuchsizligi — mavjud muammolardandir

4. Yaylovlardan haddan tashqari foydalanish va degradatsiya

Noto'g'ri chorvachilik yuritish, yaylovlarni qayta tiklamasdan foydalanish, vegetatsion davrga rioya qilmaslik – bu yerlarning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda

Qishloq xo'jaligi yerlari, ayniqsa yaylovlar noto'g'ri, haddan tashqari ishlatilmoqda. Bu esa degradatsiyaga olib kelmoqda.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari

Quyidagi choralar orqali O‘zbekistonda yaylov kadastr tizimini yaxshilash mumkin:

- Ma’lumotlarni yangilash: Har 3 yilda bir yaylovlar holati haqida ma’lumotlarni yangilab borish;
- Raqamlashtirish: Barcha yaylovlarni GIS tizimi orqali raqamlashtirish va ochiq elektron platforma yaratish;
- Huquqiy bazani kuchaytirish: Yaylovlardan foydalanish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish;
- Monitoring tizimini joriy etish: Dron va sun’iy yo‘ldoshlar yordamida yaylov holatini doimiy kuzatish.

Avvalo, yaylovlar kadastrini raqamlashtirish eng muhim vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ko‘plab yaylovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar eski va noaniq. Bu esa ulardan to‘g‘ri foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar yordamida — masalan, GPS va GIS tizimlari asosida — har bir yaylov maydonining aniq joylashuvi, chegarasi va holati raqamli shaklda qayd etilishi kerak. Bu orqali foydalanuvchilar va mutasaddi tashkilotlar aniq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. GIS, GPS va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida yaylovlarning onlayn monitoringi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu orqali ularning holati real vaqt rejimida baholanadi

Ikkinchidan, yaylovlarning holatini aniqlash va ularni muntazam kuzatib borish uchun geotexnologiyalardan foydalanish kerak. Masalan, dronlar yoki sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yaylovlarda o‘simlik qoplamasi, eroziya darajasi, sho‘rlanish va degradatsiya kabi holatlarni kuzatish mumkin. Bunday monitoring tizimi yaylovlarning holati yomonlashishiga vaqtida chora ko‘rish imkonini beradi. Mahalliy hokimliklar, ekologik tashkilotlar va fermerlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimi zarur. Bu orqali yaylovlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga erishiladi

Uchinchi muhim yo‘nalish — bu huquqiy bazani takomillashtirish. Bugungi kunda yaylovlardan foydalanish bo‘yicha qonunlar yetarlicha aniq emas. Ko‘pchilik yaylovlar qaysi tashkilot yoki shaxsga tegishli ekani, kim undan qanday foydalanishi mumkinligi haqida aniq tartib yo‘q. Shu bois, yaylovlar to‘g‘risida maxsus qonun ishlab chiqilib, u orqali yaylovlardan foydalanish, ijara shartlari, tiklash va nazorat qilish tartibi aniq belgilab qo‘yilishi kerak.

Yaylovlarni ijaraga berish, ulardan foydalanish va tiklash bo'yicha aniq me'yorlar belgilanishi, monitoring tizimi kuchaytirilishi zarur

To'rtinchidan, yaylovlarni boshqarish bo'yicha yagona va muvofiqlashtirilgan tizim yaratish lozim. Hozirda yaylovlar bilan turli tashkilotlar shug'ullanadi va bu ishlar ko'p hollarda o'zaro muvofiqlashtirilmaydi. Shuning uchun, har bir hududda yaylovlardan foydalanishni boshqaruvchi yagona markaz (masalan, Yaylov boshqaruvi markazi) tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu markaz mahalliy hokimliklar, ekologik xizmatlar va foydalanuvchilar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Degradatsiyaga uchragan yaylovlarda meliorativ ishlovlar, ekotizimni tiklovchi o'simliklar ekilishi va bioxilma-xillikni saqlovchi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak

Beshinchi yo'nalish — bu degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash, ya'ni rekultivatsiya qilish. Afsuski, ko'plab yaylovlarda o'simliklar yo'qolgan, yer sho'rlangan yoki zich haydalgan. Bunday hududlarda maxsus yem-xashak o'simliklarini ekish, yerga ishlov berish, yer namligini boshqarish kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim. Ayniqsa, "rotatsion foydalanish" usulini joriy etish, ya'ni yaylovdan bir mavsum foydalanib, keyingi mavsumda uni dam olishga qoldirish orqali yerning o'zini tiklashiga imkon berish kerak.

Yana bir muhim yo'nalish — bu mahalliy aholining, ayniqsa chorvador va fermerlarning bilim va tushunchalarini oshirish. Ularni yaylovlardan oqilona foydalanish, yerning ekologik holatiga zarar yetkazmaslik, o'simliklarni saqlash bo'yicha o'qitish kerak. Bu maqsadda treninglar, seminarlar, axborot materiallari orqali tushuntirish ishlari olib borilishi lozim.

Va nihoyat, bularning barchasini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar kerak. Davlat budjeti hisobidan mablag' ajratish bilan birga, xalqaro tashkilotlar — masalan, FAO, UNDP va boshqa donorlar bilan hamkorlikda turli grant va texnik yordam loyihalarini jalb qilish mumkin. Shuningdek, xususiy sektorni ham bu jarayonga jalb etish kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston yaylovlaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va kelajak avlodga sog'lom holatda yetkazish uchun yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish zarur. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan chorvachilikning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Natijalar

O'tkazilgan tahlil va tadqiqotlar asosida O'zbekiston Respublikasida yaylovlar kadastr tizimi bilan bog'liq dolzarb muammolar aniqlanib, ularning asosiy sabablari va oqibatlari kompleks tarzda o'rganildi. Quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Mavjud kadastr tizimi nomukammal va yangilanishsiz ekanligi aniqlandi

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda yaylovlar bo'yicha to'liq, zamonaviy elektron kadastr tizimi mavjud emas. Ko'plab ma'lumotlar eskirgan, qog'oz shaklida yuritiladi va bu foydalanuvchilar uchun ham, nazorat organlari uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Natijada yaylovlar maydonining aniq chegaralari va ekologik holati to'g'risida ishonchli axborot mavjud emas.

2. Degradatsiyaga uchragan yaylovlar ulushi ortib bormoqda

Geoinformatsion tahlil va statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 10–15 yil davomida yaylovlar degradatsiyasi tendensiyasi davom etmoqda. Eroziya, ortiqcha yuklama (chorva sonining normadan ortiq bo'lishi), va noto'g'ri foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Bu holat yem-xashak bazasining kamayishiga, chorvachilik mahsuldorligining pasayishiga olib kelmoqda.

3. Foydalanuvchilar va boshqaruv organlari o'rtasida axborot bo'shlig'i mavjud

Yaylovlar boshqaruvida yer resurslaridan foydalanuvchi fermer xo'jaliklari, mahalliy hokimiyat, kadastr va ekologik nazorat tashkilotlari o'rtasida aniq mexanizmlar mavjud emas. Bu esa resurslardan samarasiz foydalanish va noto'g'ri hisob yuritishga sabab bo'lmoqda.

4. Huquqiy me'yorlarning zaifligi tizimli muammolarni kuchaytirmoqda

Amaldagi qonunchilikda yaylovlar toifasiga oid bandlar mavjud bo'lsa-da, ular ayrim hollarda ziddiyatli, noaniq yoki amaliyotda qo'llash qiyin bo'lgan holatlarga ega. Xususan, ijaraga berish muddatlari, ekologik majburiyatlar, tiklash tartiblari bo'yicha normativlar yetarli emas.

5. Taklif etilgan chora-tadbirlar amaliyotda qo'llansa, tizim sezilarli darajada yaxshilanadi

Tadqiqot davomida taklif etilgan quyidagi chora-tadbirlar yordamida yaylovlar kadastr tizimida ijobiy natijalarga erishish mumkin:

Raqamli kadastr tizimini joriy etish orqali aniq, tezkor va shaffof ma'lumot bazasi yaratiladi.

Monitoring texnologiyalarini joriy etish yordamida yaylovlarning ekologik holati doimiy kuzatuvda bo'ladi.

Huquqiy bazani takomillashtirish orqali yer resurslaridan foydalanish bo'yicha qat'iy tartib o'rnatiladi.

Foydalanuvchilarni o'qitish va jalb etish orqali resurslarga ongli va mas'uliyatli yondashuv shakllanadi.

6. Xalqaro tajribaning mahalliyashtirilishi istiqbolli yo'nalish sifatida belgilandi

Qozog'iston, Avstraliya va Mo'g'uliston kabi yaylov resurslari boy davlatlar tajribasi O'zbekiston uchun muhim o'rnak bo'lishi mumkin. Xalqaro hamkorlik orqali innovatsion texnologiyalar, moliyaviy resurslar va ilmiy bilimlar jalb qilinishi mumkinligi aniqlandi.

Xulosa

Yaylovlarning to'g'ri boshqarilishi va kadastr tizimining takomillashuvi O'zbekistonda ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi rivojiga xizmat qiladi. Mazkur tizimni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida yaylovlar kadastr tizimini rivojlantirish masalasi nafaqat qishloq xo'jaligi sohasining barqarorligi, balki ekologik xavfsizlik, yer resurslaridan oqilona foydalanish va mahalliy aholi hayot darajasining yaxshilanishi bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda mavjud kadastr tizimi o'zining funksional va texnik imkoniyatlari jihatidan zamonaviy talab va ehtiyojlarga javob bermaydi. Yaylovlardan samarasiz foydalanish, degradatsiya holatlari, raqamli monitoringning yo'qligi va huquqiy noaniqliklar kadastr tizimining zaifligini oshirib yubormoqda. Kadastr ma'lumotlarining eskirganligi, ularning tahlilga yaroqsizligi va foydalanuvchilar uchun ochiq emasligi bu sohada tizimli islohotlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Rasulov S. (2018). “Yaylovlardan foydalanishda zamonaviy yondashuvlar.” Yer resurslarini boshqarish jurnali.
2. Gulomov F. (2021). “O‘zbekiston yaylovlarining holati va ulardan foydalanish strategiyalari.” Geografik tadqiqotlar.
3. FAO (2019). “Central Asia Pasture Management and Degradation Report.” UN FAO Publication.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2020). “Yaylovlar va o‘rmon fondi yerlarining monitoringi hisobotlari.”
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4704-son qarori (2020-yil 3-aprel): “Yaylovlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.